

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-aprel holatiga 1955,7 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 7,2 ming kishiga ya'ni 0,4 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 958,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,0 %), qishloq aholisi soni 997,5 ming kishini (51,0 %) tashkil etdi.

E’tibor bering: 2022 yil yanvar-mart oylarida

- Aholi soni **7,2 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **9,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **2,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **4,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **0,6 ming nafarni** tashkil etdi.

2022-yilning Yanvar-mart oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
1 948 488 kishi
(2022 yil 1 yanvar
holatiga)

Tirik
tug‘ilganlar
soni
9680
bola

Vafot
etganlar soni
2319
kishi

Tabiiy o'sish
7361
kishi

Ko'chib
kelganlar
2439
kishi

Ko'chib
ketganlar
soni
2594
kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
-155
kishi

Doimiy aholi soni
1 955 694 kishi
(2022-yilning 1-aprel
holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2022-yilning 1- aprel holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1955,7	958,2	997,5
Nukus sh.	330,7	330,7	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	205,6	53,3	152,3
Beruniy	198,2	70,1	128,1
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	52,6	13,2	39,4
Qorao‘zak	53,7	16,3	37,4
Kegeyli	73,8	29,8	44,0
Qo‘ng‘irot	133,2	84,2	49,0
Mo‘ynoq	33,1	14,7	18,4
Nukus	52,1	10,6	41,5
Taxiatosh	75,8	54,3	21,5
Taxtako‘pir	40,7	17,1	23,6
To‘rtko‘l	221,7	84,2	137,5
Xo‘jayli	126,0	80,4	45,6
Chimboy	114,2	58,5	55,7
Shumanay	57,2	15,0	42,2
Ellikqal’a	165,2	20,3	144,9

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni (1 aprel holatiga ming kishi)


	2021 y.	2022 y.	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1927,6	1955,7	101,5
Nukus sh.	325,0	330,7	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	201,9	205,6	101,8
Beruniy	195,0	198,2	101,6
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,2	53,7	100,9
Kegeyli	73,2	73,8	100,8
Qo‘ng‘irot	131,7	133,2	101,1
Qonliko‘l	51,8	52,6	101,5
Mo‘ynoq	32,5	33,1	101,8
Nukus	51,2	52,1	101,8
Taxiatosh	74,8	75,8	101,3
Taxtako‘pir	40,4	40,7	100,7
To‘rtko‘l	218,3	221,7	101,6
Xo‘jayli	124,4	126,0	101,3
Chimboy	113,3	114,2	100,8
Shumanay	56,6	57,2	101,1
Ellikqal’a	162,5	165,2	101,7

Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>	<i>o‘sinh, kamayish</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>
Tug‘ilganlar	7 983	9 680	1 697	16,8	20,1
O‘lganlar	2 078	2 319	241	4,4	4,8
1 yoshgacha bolalar o‘limi	138	153	15	14,3	15,0
Tabiiy o‘sinh	5 905	7 361	1 456	12,4	15,3
Nikohlar	4 242	4 155	-87	8,9	8,6
Ajralishlar	317	554	237	0,7	1,2

Tug‘ilish darajasi. 2022 yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 9680 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (7983 kishi) nisbatan 1697 kishiga yoki 21,3 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 20,1 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (16,8 promille) nisbatan 3,3 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari
(yanvar-mart oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Nukus shahrida 15,7 dan 21,7 promillega, Beruniyda 17,1 dan 21,9 promillega Taxiato‘shda 15,1 dan 19,6 promillega, va Bo‘zatovda 14,7 dan 19,1 promillega ko‘payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot

Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-mart oylarida 9,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 20,1 promilleni tashkil etdi hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 3,3 promillega ko'payganligi (2021 yilning yanvar-mart oylarida 16,8 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2022 yilning yanvar-mart oylarida)




O'lim darajasi. 2022 yilning yanvar-mart oylarida o'lganlar soni 2319 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (2078 kishi) nisbatan 241 kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille).

**2022 yilning yanvar-mart oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi**
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Beruniy tumanida (4,4 dan 5,7 promillega), Kegeylida (4,2 dan 5,4 promillega), To‘rtko‘lda (4,2 dan 5,2 promillega) va Amudaryoda (3,9 dan 4,6 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2022 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 4,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,6 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-mart oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlari tomonidan 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,2 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-mart oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-mart oylari FHDYo organlarida 4155 ta nikohlar va 554 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 8,6 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 8,9 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 0,7 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-mart oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021 y.	2022 y. ²⁾	2021 y.	2022 y. ²⁾
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4242	4155	317	554
Nukus sh.	788	630	56	132
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	468	516	33	52
Beruniy	369	500	24	47
Bo'zatov	52	45	2	3
Qonliko'l	124	75	7	11
Qorao'zak	104	120	6	21
Kegeyli	207	160	15	21
Qo'ng'iro't	329	295	29	36
Mo'ynoq	50	59	0	11
Nukus	140	136	11	14
Taxiotosh	123	141	7	11
Taxtakopir	86	65	6	19
To'rtko'l	455	427	38	42
Xo'jayli	255	269	27	35
Chimboy	238	236	19	35
Shumanay	94	97	12	14
Ellikqal'a	360	384	25	50

Migratsiya¹(Ichki va tashqi). Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yilning yanvar-mart oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2439 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 2594 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2021 yilning yanvar-mart oylarida	2022 yilning yanvar- mart oylarida
Ko‘chib kelganlar	4751	2439
Ko‘chib ketganlar	6833	2594
Migratsiya saldosi	-2082	-155

2022 yilning yanvar-mart oylarida migratsiya qoldig‘i minus 155 kishiga (2021 yilning shu davrida –minus 2082 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 140), Kegeyli (minus 54) va Qo‘raozak (minus 53) tumanlarida kuzatilgan.



¹ shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo‘shgan holda
² dastlabki ma’lumot



Poytaxtdagi demografik xolat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022 yil 1-aprel holatiga 330,7 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,7 ming kishiga yoki 0,5 % ga o‘sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)

2021 yilning yanvar-mart oylarida	2022 yilning yanvar-mart oylarida
Tug‘ilish	
15,7	21,7

2022 yilning yanvar-mart oylarida 1,8 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 21,7 promilleni tashkil etdi (2021 yilning mos davrida 15,7 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2022 yilning yanvar-mart oylarida 630 ta nikoh va 132 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,7 promilleni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 2,2 promillega kamaygan (2021 yilning mos davrida 9,9 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko‘paydi. 2021 yilning mos davrida 0,7 promille bo‘lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-mart holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

